



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani o'qutuvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar
uchun IV chorak

DARS
ISHLANMALAR

20__-20__ -o‘quv yili uchun tuzilgan biologiya fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Ekosistemaning tarkibiy tuzilmasi	1		
2.	Amaliy mashg‘ulot. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash	1		
3.	Ekologik omillar	1		
4.	BSB – 7. (30 ball) Loyiha ishi. Turli muhit sharoitida o‘sgan o‘simliklarning tuzilishini taqqoslash	1		
5.	Ekosistemaning trofik strukturasi	1		
6.	Amaliy mashg‘ulot. Oziq zanjiri va oziq to‘riga oid sxemalar tuzish va masalalar yechish	1		
7.	Evolyutsiyani harakatlantiruvchi omillar	1		
8.	Evolyutsiyani harakatlantiruvchi omillar	1		
9.	Amaliy mashg‘ulot. Populyatsiyalarning demografik ko‘rsatkichlarini Hardi-Vaynberg qonuni asosida o‘rganish	1		
10.	Tabiiy tanlanish	1		
11.	Organik olamdagi moslanishlar – evolyutsiya natijasi	1		
12.	BSB – 8. (20 ball)	1		
13.	Amaliy mashg‘ulot. Organizmlarning yashash muhitiga moslanishini o‘rganish.	1		
14.	Turlarning paydo bo‘lishi	1		
15.	CHSB – 4. (40 ball)	1		
16.	Umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Ekosistemaning tarkibiy tuzilmasi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: biologiya tirik organizmlarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalar va yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarini o'rgatish, olamning ilmiy manzarasini keng anglagan holda kelgusida shaxs sifatida shakllanishi, kasb tanlashda, ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish hamda ekologik tafakkurga ega bo'lishga zamin yaratish..

Tarbiyaviy: o'quvchilarda mustaqil ravishda hayotning quyi tuzilish darajasidan yuqori tuzilish darajasiga qadar tabiatga yaxlit sistema sifatida qarashni, biologik tushuncha, nazariya va qonuniyatlarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi sabab-oqibat zanjirini o'rnatgan holda bir tizimga keltirishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: biologik muammolar yechimi uchun zarur qarorlarni qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga, estetik va axloqiy tarbiyaga e'tibor qaratish;

insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

o'quvchi kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblardan buyumlarni necha marta kattalashtirishini hisoblay olishi, mikroskoplar bilan ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirgan bo'lishi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

Yer yuzidagi dengizlar, daryolar, ko'llar, tog'lar, o'rmonlar va cho'llar tirik mavjudotlar yashaydigan joylardir. Muayyan muhitda yashovchi tirik organizmlar va jonsiz tabiatning

majmuasi ekosistema deyiladi. Materiklar, okeanlar, ko‘llar, o‘rmonlar va o‘tloqlar ekosistemalarga misol bo‘la oladi (6.1-rasm). Tabiatdagi barcha ekosistemalar birlashib, biosferani hosil qiladi.



okean ekosistemasi



o‘rmon ekosistemasi

6.1-rasm. Ekosistemalar

“Ekosistema” atamasi 1935-yilda ingliz olimi A. Tensli tomonidan fanga kiritilgan. Uning fikriga ko‘ra, ekosistemalar faoliyati moddalar almashinuvi va energiya oqimi bilan bog‘liq bo‘lgan tirik organizmlar va atrof-muhitning fizik omillari majmuasidir. **Ekosistema** deyilganda o‘lchami jihatdan xilma-xil, moddalar va energiya almashinuvi orqali o‘zaro bog‘liq tirik organizmlar va anorganik tabiat omillarining yig‘indisi tushuniladi. Ekosistemalar hudud jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin: kichik ekosistemalar – mikroekosistemalar (mikrobli suv tomchisi, mikroorganizmlar va umurtqasiz hayvonlarga ega chiriyotgan to‘nka, ko‘lmak suv, akvarium va boshq.); o‘rtacha o‘lchamga ega ekosistemalar – mezoekosistemalar (olmali bog‘, dala, archazor o‘rmon, hovuz, ko‘l, daryo va boshq.); yirik ekosistemalar – makroekosistemalar (okean, dasht, tayga, tropik o‘rmon, tog‘lar, cho‘l va boshq.); global ekosistema (biosfera). Ekosistemalar tabiiy va sun‘iy bo‘lishi mumkin. Sun‘iy ekosistemalar insonlar tomonidan o‘z xo‘jalik faoliyatini yuritish maqsadida yaratiladi. Ekosistema ikkita tarkibiy qism – muhit sharoitlari (biotop) va Yer yuzida moddalarning davriy aylanishi hamda energiya oqimini ta‘minlovchi uchta funksional guruhga birlashadigan tirik organizmlar (biotsenoz)dan tashkil topgan.

Biotop (yunoncha *bios* – “hayot” va *topos* – “joy” yoki “yashash joyi”) nafaqat jamoaning egallagan joyi, balki jamoa hayotini belgilovchi muhit omillarining o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq kompleksidir. Tirik organizmlar o‘z hayotiy faoliyatlari davomida muhitning abiotik shart-sharoitlari (ekotop)ga o‘z ta‘sirini o‘tkazib, uni biotopga aylantiradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini ayting.
2. “Biotsenoz” va “biotop” tushunchalariga ta‘rif bering.
3. Ekosistemada organizmlarning qanday funksional guruhlari mavjud?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Amaliy mashg'ulot. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: biologiya tirik organizmlarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalar va yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarini o'rgatish, olamning ilmiy manzarasini keng anglagan holda kelgusida shaxs sifatida shakllanishi, kasb tanlashda, ilmiy dunyo qarashlarini kengaytirish hamda ekologik tafakkurga ega bo'lishga zamin yaratish..

Tarbiyaviy: o'quvchilarda mustaqil ravishda hayotning quyi tuzilish darajasidan yuqori tuzilish darajasiga qadar tabiatga yaxlit sistema sifatida qarashni, biologik tushuncha, nazariya va qonuniyatlarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi sabab-oqibat zanjirini o'rnatgan holda bir tizimga keltirishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: biologik muammolar yechimi uchun zarur qarorlarni qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'quvchi biologik tushunchaga ega bo'lishi, o'z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarni ishlata olishi;

mavzu bo'yicha tavsiya etilgan o'quv topshiriqlari va o'qituvchining savollariga yozma va og'zaki javob berishda ta'lim olayotgan til me'yorlariga rioya qilish; kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

o'quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma'lumotlarni izlab topa olishi;

darslikning kirish qismida berilgan ko'rsatmalar asosida o'rganilgan mavzu matniga reja tuza olish; matndan foydalanib savollarga javob topish, amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Maqsad: ekosistemalarning tarkibini aniqlash, tabiiy va sun'iy ekosistemalarni qiyosiy o'rganish.

Ishning borishi


1. Ekosistemalar tarkibini aniqlash yuzasidan topshiriqlar.
2. Tabiiy va sun'iy ekosistemalarni qiyosiy o'rganishga doir topshiriqlar.
3. Xulosa.

6.2. Amaliy mashg'ulot. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash

1-topshiriq. Ekosistemalarning tarkibini sxemada aks ettiring. Sxemani ish daftaringizga chizing.

Ekosistema			
Biotop		Biotsenoz	

2-topshiriq. Ekosistemalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring, har bir bog'lanishlarga misollar yozing.



3-topshiriq. Biotsenozning funksional guruhlari va ularning vakillari o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang. Javoblaringizni ish daftaringizga yozing.

Funksional guruhlar	Vakillar	
1) Produtsentlar.	1) qoqio't;	7) yomg'ir chuvalchangi;
2) Konsumentlar.	2) bug'u;	8) lishaynik;
3) Redutsentlar.	3) zog'ora baliq;	9) oq zamburug';
	4) laminariya;	10) buzoqbosh;
	5) dafniya;	11) ammonifikator bakteriya;
	6) temir bakteriyasi;	12) oddiy amyoba.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash 5-topshiriq. Ekosistemada redutsentlar sonining keskin kamayishi qanday ekologik oqibatlarga olib keladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

35 listdan iborat biologiya fanidan 10-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**